

“Servis xizmati” fanidan test savollari va javoblari

1.Xavfsizlik texnikasi nimaga qaratilgan?

- 1.mehnat qilish uchun xavfsiz sharoit yaratishga;
- 2.tikuvchilik ustaxonasini jihozlashga
- 3.tikuv ustaxonasining ichki tartibini o‘rganishga
- 4.ish o‘rnini to‘g‘ri tashkil etishga

2.Qo‘l ishlari necha guruhga bo‘linadi?

- 1.2 guruhga: o‘tirib va turib bajariladigan;
- 2.1 guruhga: turib bajariladigan
- 3.3 guruhga: o‘tirib, yurib va turib bajariladigan
- 4.4 guruhga: o‘tirib, yurib, tikuv mashinasida va turib bajariladigan

3.Qaysi operatsiyalar qo‘lda bajariladigan ishlar deb hisoblanadi?

- 1.boshidan oxirichagacha qo‘lda bajariladigan;
- 2.mashinada bajariladigan;
3. yarmi qo‘lda va dazmolda;
- 4.qo‘l choklari va mashia choklarida bajariladigan.

4.Tikuvchilik asboblari va moslamalarini ko‘rsatib bering?

- 1.Tikuv mashinasi. Qo‘l ishlari ninalari (turli o‘lchamda). Mashina ninalari.
- 2.Angishvona. Igna to‘g‘nog‘ichlar. Nina va to‘g‘nog‘ichlar uchun yostiqlar. Iplar. Tikuvchilik bo‘ri, sovun yoki qalam. Santimetr lenta. Quticha. Tikuvchilik qaychisi (katta va kichik). Dazmol. Dazmollash taxtasi. Tikuv mashinasi. Qo‘l ishlari ninalari (turli o‘lchamda). Mashina ninalari. Angishvona.
- 3.Igna to‘g‘nog‘ichlar. Nina va to‘g‘nog‘ichlar uchun yostiqlar. Dekatirovka. Iplar. Tikuvchilik bo‘ri, sovun yoki qalam. Quticha. Tikuvchilik qaychisi (katta va kichik). Dazmol. Dazmollash taxtasi. Qiya adip.
4. Nina va to‘g‘nog‘ichlar uchun yostiqlar. Iplar. Tikuvchilik bo‘ri, sovun yoki qalam. Quticha. To‘rlar, lentalar, bolg‘a, egov.

5..... --- maxsus joyda saqlash, o‘z kiyimiga qadamaslik og‘izga solmaslik, yo‘qotib qo‘ymaslik, sinib qolsa maxsus joyga tashlash kerak. Uni o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i va ko‘rsatkich barmog‘i bilan ushlab o‘rta barmoqqa angishvona kiyiladi.

- 1.nina bilan ishlash –
- 2.qaychi bilan ishlash –
- 3.tikuv mashinasida ishlash -
- 4.dazmol bilan ishlash –

6..... --- maxsus joyda saqlash, uchini yuqoriga qilib ushlamaslik, ish joyida ochiq holda qoldirmaslik, mashinaning harakatlanuvchi qismlari yoniga qo‘ymaslik kerak.

- 1.qaychi bilan ishlash –
- 2.nina bilan ishlash –
- 3.tikuv mashinasida ishlash -
- 4.dazmol bilan ishlash –

7.....--- barcha harakatlanuvchi qismlarga nisbatan ehtiyotkor bo‘lish lozim. Uishlab turgan vaqtida uni tozalash, moylash va remen o‘tkazish mumkin emas.Tepki, igna va igna plastinkalari yaxshi qotirilganligini tekshirish, igna qo‘yilganligini va past-balandligini tekshirish lozim.

- 1.tikuv mashinasida ishlash -
- 2.nina bilan ishlash –
- 3.qaychi bilan ishlash –
- 4.dazmol bilan ishlash –

8.....--- issiqqa chidamli bo‘lgan moslamada turishi kerak. Ishlatishdan avval simini tekshirib ko‘riladi. Uning simida ochiq joylari bo‘lmasligi kerak. Ishlaish vaqtida simni buralib ketmasligiga ahamiyat berish kerak. Undan to‘g‘ri foydalanmaslik kishining kuyishiga yoki o‘t chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

- 1.dazmol bilan ishlash –
- 2.nina bilan ishlash –
- 3.qaychi bilan ishlash –
- 4.tikuv mashinasida ishlash –

9..... ---chok tikish uchun ip uzunligi 50-60 sm bo‘lishi kerak. Uzun ip chigallanadi va uziladi. Igna uchi mato ustidan kiradi. Mato ustidan chiqayotgan nina uchini qo‘lning ko‘rsatgich va bosh barmoqlari bilan ushlab tortiladi. Gavdani to‘g‘ri tutish, egilmaslik va oyoqlarni chalishtirmaslik kerak. Agar stul baland bo‘lsa oyoq ostiga biron narsa qo‘yish kerak.

- 1.qo‘lda tikishda –
- 2.nina bilan ishlash –
- 3.qaychi bilan ishlash –
- 4.mashinada ishlashda o‘tirish qoidasi –

10.....--- tikish vaqtida to‘g‘ri o‘tirish kerak. Buning uchun tikayotgan odam uning ninasidan 30-40 sm uzoqroqda o‘tirishi kerak. Stolni shunday qo‘yish kerakki, bunda gavda egilmasligi kerak. Uning pedalini avval o‘ng, so‘ng chap oyoq bilan bosiladi.

- 1.mashinada ishlashda o‘tirish qoidasi –
- 2.nina bilan ishlash qoidasi –
- 3.qaychi bilan ishlash qoidasi–
- 4.qo‘lda tikishqoidasi–

11.Qo‘l ninalari nomerlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.?

- 1.75 – 130
- 2.75–90

3.85–110
4.110–130

12.Yupqa ip/paxta (x/b) tolali, jun, ipak tolali matolarni nechanchi nomerli ninalarda tikiladi?

1.75–90
2.75 – 130
3.85–110
4.110–130

13.O‘rtacha qalinlikdagi matolar chiyduxoba, kostyumli sherstlar, duxobalarni nechanchi nomerli ninalarda tikiladi?

1.85–110
2.75 – 130
3.75–90
4.110–130

14.Qalin pal’tolik matolarni nechanchi nomerli ninalarda tikiladi.

1.110–130
2.75 – 130
3.75–90
4.85–110

15.Tikuv mashinasida tikish vaqtida ninani qancha vaqtda almashtirib turish kerak.

1.tez–tez
2.bir haftada
3.bir oyda
4.kamdan-kam

16.Gazlamalarning o‘rilishlariga qarab qaysi ko‘rsatkichlar belgilanadi?

1.gazlamaning tuzilishi va xossalarini belgilaydi.
2.gazlamaning o‘ngi va teskari tomonini belgilash imkonini beradi
3.gazlamaning qalin, yupqaligini belgilaydi
4.gazlamaning bir tomonlama yoki nuqsonli ekanligini bildiradi

17. Gazlamaning asosiy o‘rilishlarga qanday o‘rilishlar kiradi?

1.Polotno, sarja, satin
2.Reps, atlas
3.Siniq sarja, ko‘ndalang reps
4.Kuchaytirilgan sarja, rogojka

18.Ikkala tomonidan bir xil ko‘rinishga ega bo‘lgan gazlamalar –

1.Polotno o‘rilishdagi gazlama

2. Atlas o'rinishdagi gazlama
3. Sarja o'rinishdagi gazlama
4. Satin o'rinishdagi gazlama

19. Agar tashqi ko'rinishi bir xil bo'lsa, gazlamaning o'ngi qaysi ko'rsatgich asosida aniqlanadi?

1. Milk asosida va bo'yalishidan
2. Iplarning tuzilishi asosida
3. Gazlamaning eniga qarab
4. gazlamani dazmollab ko'rib belgilanadi

20. Bichishda ishlatiladigan atamalar: relief –

1. shakldor chok
2. Cho'ntak qismini berkituvchi bo'lak. Cho'ntak pastki qirqimiga qo'shib tikiladi
3. Shim, yubka bel qirqimiga tikiladi va belbog' yoki kamar o'tkaziladi
4. Tikib ag'darilgan qism chetlaridan perekat hosil qilish, mag'iz chiqarish uchun vaqtincha tikish

21. Bichishda ishlatiladigan atamalar: belbog' tutqich –

1. Shim, yubka bel qirqimiga tikiladi va belbog' yoki kamar o'tkaziladi.
2. Tikib ag'darilgan qism chetlaridan perekat hosil qilish, mag'iz chiqarish uchun vaqtincha tikish
3. Cho'ntak qismini berkituvchi bo'lak. Cho'ntak pastki qirqimiga qo'shib tikiladi
4. shakldor chok

22. Astarli gazlamalarning o'ngi qanday aniqlanadi?

1. yaltiroq gazlamalarning o'ngi silliqroq, teskarisi esa yaltiroqmas bo'ladi.
2. yaltiroq gazlamalarning o'ngi doim sidirg'a rangda bo'ladi.
3. yaltiroq gazlamalarning o'ngi gulli, teskarisi yaltiroq bo'ladi.
4. yaltiroq gazlamalarning o'ngi tukli va teskarisi yaltiroq bo'ladi

23. Bichishda ishlatiladigan atamalar: podzor -

1. cho'ntak qopchasini ko'rintirmaslik uchun tikiladigan bo'lak
2. shakldor chok
3. cho'ntak ichki qismida asosiy bo'lak
4. Shim, yubka bel qirqimiga tikiladi va belbog' yoki kamar o'tkaziladi

24. Ip/paxtali (x/b) gazlamalar qaysi turdagi iplar bilan tikiladi?

1. ip/paxtali iplar bilan
2. sun'iy iplarda tikiladi
3. qalin iplarda tikiladi

4.yupqa iplarda tikiladi

25.Kiyim tikish uchun ip qanday tanlanadi?

- 1.ip rangi gazlama rangidan to'qroq bo'lishi kerak
- 2.ip rangi gazlama rangidan ochroq bo'lishi kerak
- 3.ip rangi gazlama rangi bilan bir xil bo'lishi kerak
- 4.ip rangi gazlama rangiga mos tushishi shart emas

26.Dekatirovka nima?

- 1.dekatirovka gazlamani ishlatishdan avval unga namlab isitib ishlov berish (NIIB)
- 2.dekatirovka gazlamaning o'ngini tanlash va unga namlab isitib ishlov berish (NIIB)
- 3.dekatirovka ipni gazlamaga moslanishi
- 4.dekatirovka ninani gazlamaga moslanishi

27.Oddiy ip gazlama, zig'ir tola, gazlamalar qanday dekatirovka qilinadi?

- 1.ho'llab siqiladi,quritiladi va gazlama sal namligida teskari tomonidan asos ipi bo'ylab dazmollanadi
- 2.dokani namlab yoki bug'li dazmolda dazmollash yetarlidir
- 3.maxsus suyuqlik bilan choyshabni ho'llab o'raladi va 6-8 soat qo'yiladi, so'ngra mato teskarisidan bo'y ipi bo'ylab quriguncha dazmollanadi
- 4.gazlama suvga bo'ktirib qo'yiladi va bug'li dazmolda asos ipi bo'ylab dazmollanadi

28.Duxoba, chiyduxoba, kapron, neylon matolarni qanday dekatirovka qilinadi?

- 1.bu gazlamalar dekatirovka qilinmaydi
- 2.dokani namlab yoki bug'li dazmolda dazmollash yetarlidir
- 3.ho'llab siqiladi,quritiladi va gazlama sal namligida teskari tomonidan asos ipi bo'ylab dazmollanadi
- 4.gazlama suvga bo'ktirib qo'yiladi va bug'li dazmolda asos ipi bo'ylab dazmollanadi

29.Sherst matolarni qanday dekatirovka qilinadi?

- 1.maxsus suyuqlik bilan choyshabni ho'llab o'raladi va 6-8 soat qo'yiladi, so'ngra mato teskarisidan bo'y ipi bo'ylab quriguncha dazmollanadi
- 2.dokani namlab yoki bug'li dazmolda dazmollash yetarlidir
- 3.ho'llab siqiladi,quritiladi va gazlama sal namligida teskari tomonidan asos ipi bo'ylab dazmollanadi
- 4.gazlama suvga bo'ktirib qo'yiladi va bug'li dazmolda asos ipi bo'ylab dazmollanadi

30.Shtapel gazlamalarni qanday dekatirovka qilinadi?

- 1.12-14 soat bo'ktirib qo'yiladi, quritiladi va gazlama sal namligida teskari tomonidan asos ipi bo'ylab dazmollanadi
- 2.dokani namlab yoki bug'li dazmolda dazmollash yetarlidir
- 3.ho'llab siqiladi,quritiladi va gazlama sal namligida teskari tomonidan asos ipi bo'ylab dazmollanadi
- 4.bu gazlamalar dekatirovka qilinmaydi

31.Tabiiy va sun'iy tolali, ipaklik matolarni qanday dekatirovka qilinadi?

- 1.dokani namlab yoki bug'li dazmolda dazmollash yetarlidir
- 2.maxsus suyuqlik bilan choyshabni ho'llab o'raladi va 6-8 soat qo'yiladi, so'ngra mato teskarisidan bo'y ipi bo'ylab quriguncha dazmollanadi
- 3.bu gazlamalar dekatirovka qilinmaydi
- 4.ho'llab siqiladi,quritiladi va gazlama sal namligida teskari tomonidan asos ipi bo'ylab dazmollanadi

32.Gazlamada ip yo'nalishlarini ko'rsating?

- 1.asos (bo'y, tanda) ipi, arqoq (eni) ipi yo'nalishlari
- 2.asos (bo'y, tanda) ipi, ko'ndalang (eni) ipi yo'nalishlari
- 3.uzuna ipi, arqoq (eni) ipi yo'nalishlari
- 4.qiya ipi, arqoq (eni) ipi yo'nalishlari

33.Nina, ip va gazlamalarni bir biriga moslang: ipak, batist, chit, satin

- 1.nina -75, ip 80 -100
- 2.nina -90, ip 60-80
- 3.nina -100, ip 50-60
- 4.nina -110, ip 30-40

34.Nina, ip va gazlamalarni bir biriga moslang:shoyshablik mato - kolenkor

- 1.nina -90, ip 60-80
- 2.nina -75, ip 80 -100
- 3.nina -100, ip 50-60
- 4.nina -110, ip 30-40

35.Nina, ip va gazlamalarni bir biriga moslang: pahmoq, bo'z, yupqa sherst, qalin ipaklik

- 1.nina -100, ip 50-60
- 2.nina -75, ip 80 -100
- 3.nina -90, ip 60-80
- 4.nina -110, ip 30-40

36.Nina, ip va gazlamalarni bir biriga moslang: sherst matolar - tik

- 1.nina -110, ip 30-40
- 2.nina -75, ip 80 -100
- 3.nina -90, ip 60-80
- 4.nina -100, ip 50-60

37.Nina, ip va gazlamalarni bir biriga moslang: qalin sherst, qalin tik, qalin shimli va kostyumli matolar

- 1.nina -120, ip-30
- 2.nina -75, ip 80-100
- 3.nina -90, ip 60-80
- 4.nina -100, ip 50-60

38.Kiyim tikish uchun gavadan o'lchov qanday kiyimda olinadi?

- 1.o'lchov yupqa kiyimda, oyoq kiyimsiz olinadi
- 2.o'lchov qalin kiyimda, oyoq kiyimsiz olinadi
- 3.o'lchov olish uchun kiyimning ahamiyati yo'q
- 4.o'lchov olish uchun oyoq kiyim va kengroq ko'ylak bo'lishi kerak

39.Kiyim tikish uchun o'lchov gavdaning qaysi tomonidan olinadi?

- 1.gavdani o'ng tomoni ko'proq rivojlangan bo'lgani uchun, har doim o'ng tomondan o'lchanadi
- 2.gavdani chap tomoni kamroq rivojlangan bo'lgani uchun, har doim chap tomondan o'lchanadi
- 3.andozaning yarmi chizilgani uchun ikkala tomondan o'lchanadi
- 4.gavdaning eng nozik joyi belni belbog' bilan gorizontal holda bog'lab o'lchanadi

40.Nuqsonli gavadan o'lchov qanday olinadi?

- 1.agar gavda tuzilishi ikki xil bo'lsa, u holda ikkala tomondan o'lchanadi
- 2.gavdaning qaysi tomonida nuqsoni bo'lsa, o'sha tomondan o'lchov olinmaydi
- 3.qoidaga ko'ra o'ng tomondan o'lchov olinadi
- 4.nuqsonli gavdaning doim chap tomonidan o'lchov olinadi

41.Rost -.

- 1.insonning bosh kiyimsiz, oyoq kiyimsiz boshdan tovongacha bo'lgan uzunligidir
- 2.bu ko'krak yarim aylana, bel yarim aylana, bo'ksa yarim aylana o'lchab, ular orasidagi farqga aytiladi
- 3.bu turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq vaqt hukmron bo'lib turishidir
- 4.bu kiyimga nisbatan ko'rinishi, shakli, gazlamasi, bezagi yoki boshqa sifatleri yangicha bo'lgan kiyim namunasidir

42.To'liqlik -

- 1.buko'krak yarim aylana, belyarim aylana, bo'ksayarim aylana o'lchab, ular orasidagi farqga aytiladi
- 2.bu insonning bosh kiyimsiz, oyoq kiyimsiz boshdan tovongacha bo'lgan uzunligidir
- 3.bu turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq vaqt hukmron bo'lib turishidir
- 4.bu kiyimga nisbatan ko'rinishi, shakli, gazlamasi, bezagi yoki boshqa sifatleri yangicha bo'lgan kiyim namunasidir

43.Moda -

- 1.bu turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimdan namoyon bo'ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq vaqt hukmron bo'lib turishidir

- 2.bu insonning bosh kiyimsiz, oyoq kiyimsiz boshdan tovongacha bo'lgan uzunligidir
- 3.bu ko'krak yarim aylana, bel yarim aylana, bo'ksa yarim aylana o'lchab, ular orasidagi farqga aytiladi
- 4.bukiyimganisbatanko'rinishi, shakli, gazlamasi, bezagi yoki boshqa sifatlarini angichabo'lgankiyimnamunasidir

44.Model -

- 1.bu kiyimga nisbatan ko'rinishi, shakli, gazlamasi, bezagi yoki boshqa sifatleri yangicha bo'lgan kiyim namunasidir
- 2.bu insonning bosh kiyimsiz, oyoq kiyimsiz boshdan tovongacha bo'lgan uzunligidir
- 3.bu ko'krak yarim aylana, bel yarim aylana, bo'ksa yarim aylana o'lchab, ular orasidagi farqga aytiladi
- 4.bu turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq vaqt hukmron bo'lib turishidir

45.Normal gavda tuzilishi -

- 1.ya'ni, proporsional tuzilgan. Bu turdagi gavda tuzilishi qomati raso bo'lib, orqasi tekis, yelkalari bir oz orqaga tashlangan va qorni ichiga tortilgan bo'ladi.
 - 2.ya'ni, kuraklar yaxshi rivojlanmagan, beli ichiga kirgan, orqasi tor, ko'kragi keng va yuqoriroqda joylashgan bo'ladi: $Or. uz < Old uz$.
 - 3.ya'ni, kuraklar keng rivojlangan, ko'qraklar esa rivojlanmagan, yoki kam rivojlangan.
 - 4.Yelka va qo'llar oldinga egilgan. Orqaning belgacha uzunligi ko'payib, oldning belgacha uzunligi kamayib boradi: $Or.uz > Old uz$.
- ya'ni, ko'krak pastda yoki tepada joylashishi, yelkaning bir tomoni baland, bir tomoni past, ko'kraklarning biri katta, ikkinchisi kichikroq, kuraklarning biri bukr, ikkinchisi gerdayganroq bo'ladi

46.Gerdaygan gavda tuzilishi -

- 1.ya'ni, kuraklaryaxshirivojlanmagan, beliichigakirgan, orqasitor, ko'kragikengvayuqoriroqdajoylashganbo'ladi: $Or. uz < Olduz$.
- ya'ni, proporsional tuzilgan. Bu turdagi gavda tuzilishi qomati raso bo'lib, orqasi tekis, yelkalari bir oz orqaga tashlangan va qorni ichiga tortilgan bo'ladi.
- ya'ni, kuraklar keng rivojlangan, ko'qraklar esa rivojlanmagan, yoki kam rivojlangan.
- 3.Yelka va qo'llar oldinga egilgan. Orqaning belgacha uzunligi ko'payib, oldning belgacha uzunligi kamayib boradi: $Or.uz > Old uz$.
- 4.ya'ni, ko'krak pastda yoki tepada joylashishi, yelkaning bir tomoni baland, bir tomoni past, ko'kraklarning biri katta, ikkinchisi kichikroq, kuraklarning biri bukr, ikkinchisi gerdayganroq bo'ladi

47.Bukr gavda tuzilishi -

- 1.ya'ni, kuraklarkengrivojlangan, ko'qraklaresarivojlanmagan, yokikamrivojlangan.
- 2.Yelkavaqo'llaroldingaegilgan. Orqaningbelgachauzunligiko'payib, oldningbelgachauzunligikamayibboradi: $Or.uz > Olduz$.
- ya'ni, proporsional tuzilgan. Bu turdagi gavda tuzilishi qomati raso bo'lib, orqasi tekis, yelkalari bir oz orqaga tashlangan va qorni ichiga tortilgan bo'ladi.

3.ya'ni, kuraklar yaxshi rivojlanmagan, beli ichiga kirgan, orqasi tor, ko'kragi keng va yuqoriroqda joylashgan bo'ladi:Or. uz < Old uz.

ya'ni, ko'krakpastdayokitepadajoylashishi, yelkaningbirtomonibaland, birtomonipast, ko'kraklarningbirikatta, ikkinchisikichikroq, kuraklarningbiribukr, ikkinchisigerdayganroqbo'ladi

48.Nuqsonli gavda tuzilishi -

1.ya'ni, ko'krakpastdayokitepadajoylashishi, yelkaningbirtomonibaland, birtomonipast, ko'kraklarningbirikatta, ikkinchisikichikroq, kuraklarningbiribukr, ikkinchisigerdayganroqbo'ladi

2.ya'ni, proporsional tuzilgan. Bu turdagi gavda tuzilishi qomati raso bo'lib, orqasi tekis, yelkalari bir oz orqaga tashlangan va qorni ichiga tortilgan bo'ladi.

3.ya'ni, kuraklar yaxshi rivojlanmagan, beli ichiga kirgan, orqasi tor, ko'kragi keng va yuqoriroqda joylashgan bo'ladi:Or. uz < Old uz.

ya'ni, kuraklarkengrivojlangan, ko'qraklaresarivojlanmagan, yokikamrivojlangan.

4.Yelkavaqo'llaroldingaegilgan. Orqaningbelgachauzunligiko'payib, oldningbelgachauzunligikamayibboradi: Or.uz>Olduz.

49.Kiyim tikish uchun olinadigan asosiy o'lchovlarni ko'rsating?

1.ko'krak2 aylanasi, bel aylanasi, bo'ksa aylanasi, orqa kenglik, orqa uzunlik, yeng uzunligi

2.ko'krak2 aylanasi, bel aylanasi, bo'ksa aylanasi, yelka aylanasi, yelka kengligi, bilak aylanasi

3.orqa kenglik, orqa uzunlik, yeng uzunligi, bo'ksagacha bo'lgan balandlik, old yelka qiyama balandligi

4.bel aylanasi, bo'ksa aylanasi, orqa kenglik, old uzunlik, orqa yelka qiyama balandligi

50.Kiyim tikish uchun qanday o'lchovlar mavjud?

1.o'lchovlar aylana va uzunlik, asosiy va yordamchi bo'ladi

2.o'lchovlar aylana va uzunlik, asosiy va kenglik bo'ladi

3.o'lchovlar aylana va yarim aylana, asosiy va yordamchi bo'ladi

4.o'lchovlar aylana va to'liq uzunlik, asosiy va yordamchi bo'ladi

51.Kenglik va aylana o'lchovlariga -

1.hamma to'liq aylana o'lchovlari hamda orqa kenglik va ko'krak kengligi ham kiradi.

2.Bu o'lchovlarning yarim yoziladi, (qo'l aylanasi tashqari) chunki chizma gavdaning yarmiga chiziladi

3.hamma bo'y uzunliklari kiradi va to'laligicha yoziladi

hamma bo'y uzunliklari kiradi va o'lchovlarning yarim yoziladi, (qo'l aylanasi tashqari) chunki chizma gavdaning yarmiga chiziladi

4.hamma to'liq aylana o'lchovlari kiradi va to'laligicha yoziladi

52.Uzunlik o'lchovlariga -

1.hamma bo'y uzunliklari kiradi va to'laligicha yoziladi

2.hamma to'liq aylana o'lchovlari hamda orqa kenglik va ko'krak kengligi ham kiradi.

3. Bu o'ldovlarning yarim yoziladi, (qo'l aylanasidan tashqari) chunki chizma gavdaning yarmiga chiziladi

4. hamma bo'y uzunliklari kiradi va o'ldovlarning yarim yoziladi, (qo'l aylanasidan tashqari) chunki chizma gavdaning yarmiga chiziladi

hamma to'liq aylana o'ldovlari kiradi va to'laligicha yoziladi

53. Kattalar kiyimlari uchun standart o'ldamlarni ko'rsating?

1. 44 dan 56- o'ldamgacha, bundan katta o'ldamlar normadan tashqari hisoblanadi

2. 46 dan 58- o'ldamgacha, bu o'ldamlar kattalar uchun norma hisoblanadi

3. 42 dan 56- o'ldamgacha, bundan kichik o'ldamlar normadan tashqari hisoblanadi

4. 44 dan 58- o'ldamgacha, bundan kichik razmerlar norma hisoblanadi

54. Kiyim tikish tartibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

1. o'ldov olish, andaza chizmasini chizish, andazalarni bichishga tayyorlash, gazlama ustiga andaza qismlarini joylash, bichish, ko'klash, kiydirib ko'rish, tikish, bezaklarni o'rnatish, iplardan tozalash, dazmollash

2. o'ldov olish, andaza chizmasini chizish, andazalarni bichishga tayyorlash, gazlama ustiga andaza qismlarini joylash va bichish, tikish, cho'ntaklarni, yoqalarni tikish, bezaklarni o'rnatish, dazmollash

3. o'ldov olish, andaza chizmasini chizish, andazalarni dazmollash, gazlama ustiga andaza qismlarini joylash, bichish, yengni bichish-tikish, iplardan tozalash, dazmollash.

4. o'ldov olish, andaza chizmasini chizish, andazalarni bichishga tayyorlash, gazlama ustiga andaza qismlarini joylash, bichish, kiyim etagiga va yon choklariga gazlama turga qarab ishlov berish

55. Kiyim etagini, yeng uchini qayirib tikishda, yupqa sitiluvchan va sitilmaydigan gazlamalarda ishlatiladigan qo'l choki?

1. yashirin chok

2. ag'darma chok

3. bostirma chok

4. izma choki

56. Avval o'ngdan so'ng teskaridan tikiladi. Ayollar va bolalar ichki kiyimlarida, ko'rpa, yostiq jildlarida va ayollar kiyimlarida yupqa sitiluvchan gazlamalarda ishlatiladigan mashina choki?

1. ag'darma chok

2. janda choki

3. bostirma chok

4. izma choki

57. Erkaklar ustki kiyimida, ichki kiyimlarda va sitiladigan kiyimlarda tikiladigan mashina choki?

1. bostirma chok

2. janda choki

3. vafli choki

4.shim choki

58.Bezak choklari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?

- 1.vafli choki, bantli taxlamali chok, oralatib tikilgan taxlamali chok, mashina choki berkitib tikilgan taxlamali chok, zaship chok
- 2.yashirin chok, ag'darma chok, bostirma chok, mashina choki berkitib tikilgan taxlamali chok, zaship chok
- 3.vafli choki, bantli taxlamali chok, shim choki, janda choki, izma choki mag'iz, izmalar, bantli taxlamali chok, shim choki, vafli choki, yashirin chok

59.Kiyimning ochiq qirqimlariga ishlov berishda va kiyimga izma ochishda ishlatiladigan qo'l choki?

- 1.izma choki
- 2.janda choki
- 3.vafli choki
- 4.shim choki

60.Andazadning ayrim bo'laklariganima uchun nazorat chiziqlari kiritiladi?

- 1.Andazadaip yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziqlari bo'lmagan qismlarga nazorat chiziqlari kiritiladi
- 2.kiyim shaklini ko'rsatish uchun nazorat chiziqlari kiritiladi
- 3.tikib ag'darilgan qism chetlarini belgilash uchun nazorat chiziqlari kiritiladi
- 4.kiyimga alohida tayyorlangan qismlarni ko'rsatish uchun nazorat chiziqlari kiritiladi

61.Qo'l ishlari atamalari: kertma –

- 1.0,2-1 sm gacha qirqimlarni kertish
- 2.tikib ag'darilgan qism chetlarini 0,2-1 sm kertish
- 3.kiyim qirqimlarini titilishdan saqlash uchun 0,2-1 sm gacha kertish
- 4.kiyimga alohida tayyorlangan qismlarni 0,2-1 sm gacha kertish

62.Qo'l ishlari atamalari: yo'rmash –

- 1.kiyim qirqimlarini titilishdan saqlash uchun qo'l choklari bilan mahkamlash
- 2.kiyim chetini qaytarib (masalan, etakni, yeng uchini) vaqtincha sirma qaviq bilan yo'rmash
- 3.bunda yengning birinchi bo'lagini bo'sh qo'yib, ikkinchisini tortmasdan ulab yo'rmash
- 4.kiyimga alohida tayyorlangan qismlarni doimiy qaviq bilan yo'rmash

63.Qo'l ishlari atamalari: chatish –

1. kiyimga alohida tayyorlangan qismlarni doimiy qaviq bilan mahkamlash (cho'ntaklar, tugmalar, temir ilgak va kiyim bezaklari)
- 2.kiyim qismlarni belgilangan chiziqlar bo'ylab vaqtinchalik sirma qaviq bilan biriktirish
- 3.ikki qismni bir-birini ustiga qo'yib vaqtincha biriktirish (cho'ntaklar, tugmalar, temir

ilgak va kiyim bezaklari)

4.kiyim ziylarini shaklini mustahkamlash uchun ziylar chatiladi

64.Bichishda ishlatiladigan atamalar: vitachka –

1.kiyimni odam gavdasiga moslash va kerakli shakl berish uchun tikiladi

2.kiyim o'ngiga tikilgan mayda taxlamalar, bezak sifatida tikiladi

3.romb, to'g'ri burchak va kvadrat ko'rinishidagi bo'lak

4.cho'ntak qopchasini ko'rintirmaslik uchun tikiladigan bo'lak

65.Bichishda ishlatiladigan atamalar: qopqoq –

1.cho'ntakqirqimini berkituvchi bo'lak bo'lib, unich o'ntakning yuqori qismiga tikiladi

2.cho'ntak qismini berkituvchi bo'lak, cho'ntak pastki qismiga qo'shib tikiladi

3.cho'ntak qopchasini ko'rintirmaslik uchun tikiladigan bo'lak

4.cho'ntak ichki qismida asosiy bo'lak

66.Bichishda ishlatiladigan atamalar: yeng boshi –

1.yengning yuqori qismi

2.yengni kiyimga ulash o'mizi

3.yengning manjet ulash qismi

4.yengning tirsak qismi

67.Bichishda ishlatiladigan atamalar: yeng o'mizi –

1.kiyimda old va orqa bo'lak yelka qirqimidan yon qirqimgacha bo'lgan qism

2.ishlov berilgan, ulab tikilmaydigan yeng qismi

3.kiyimda yengning old bo'lak qismi

4.kiyim o'ngiga tikiladigan yengning qismi

68.Bichishda ishlatiladigan atamalar: mag'iz –

1.qiya adip bichib, o'ngidan tikib teskariiga o'girilgan gazlama parchasi

2.asos ipiga bichib, teskarisidan tikib o'ngiga o'girilgan gazlama parchasi

3.shim, yubka bel qirqimiga tikiladi va belbog' yoki kamar o'tkaziladi

4.ishlov berilgan, ulab tikilmaydigan bo'lak cheti

69.Bichishda ishlatiladigan atamalar: shlitsa –

1.qiyiq, palto, pidjak, yubkalarda ishlov berilgan yopiq qirqim

2.qiyiq, palto, pidjak, yubkalarda ishlov berilmagan ochiq qirqim

3.shim, yubka bel qirqimiga tikiladi va belbog' yoki kamar o'tkaziladi

4.qiya adip bichib, o'ngidan tikib teskarisiga o'girilgan gazlama parchasi

70.Dazmollashda ishlatiladigan atamalar: bir tomonga yotqazib dazmollash -

1.kiyim choklarini yoki taxlamalarni bir tomonga yotqazib dazmollash

2.kiyim choklarini ikki tomonga yorib dazmollash

3.gazlama g'ijimini dazmollab yoyish

4.choklar, taxlamalar va vitochkalarda gazlama qalinligini kamaytirish

71.Dazmollashda ishatiladigan atamalar: bug‘lash –

- 1.kiyimda dazmollashda hosil bo‘lgan yaltiroqlikni bug‘lab yo‘qotish
- 2.baska, oborka, valanlarni chetlarini cho‘zib dazmollash
- 3.tayyor kiyimning kirishishini oldini olish uchun gazlamaga namlab isitib ishlov berish (NIIB).
- 4.gazlama g‘ijimini dazmollab yoyish

72.Dazmollashda ishatiladigan atamalar: cho‘zib dazmollash –

- 1.baska, oborka, valanlarni chetlarini cho‘zib dazmollash
- 2.tayyor kiyimni dazmollash
- 3.gazlama g‘ijimini dazmollab yoyish
- 4.kiyim choklarini yoki taxlamalarni bir tomonga yotqazib dazmollash

73.Dazmollashda ishatiladigan atamalar: dazmollash –

- 1.tayyor kiyimni dazmollash
- 2.tayyor kiyimning kirishishini oldini olish uchun gazlamaga namlab isitib ishlov berish (NIIB).
- 3.gazlama g‘ijimini dazmollab yoyish
- 4.kiyim choklarini yoki taxlamalarni bir tomonga yotqazib dazmollash

74.Dazmollashda ishatiladigan atamalar: dazmollab yupqalashtirish -

- 1.choklar, taxlamalar va vitochkalarda gazlama qalinligini kamaytirish.
- 2.tayyor kiyimning kirishishini oldini olish uchun gazlamaga namlab isitib ishlov berish (NIIB)
- 3.gazlama g‘ijimini dazmollab yoyish
- 4.kiyimda dazmollashda hosil bo‘lgan yaltiroqlikni bug‘lab yo‘qotish

75.Dazmollashda ishatiladigan atamalar: dekatirovka -

- 1.tayyor kiyimning kirishishini oldini olish uchun gazlamaga namlab isitib ishlov berish (NIIB)
- 2.kiyimda dazmollashda hosil bo‘lgan yaltiroqlikni bug‘lab yo‘qotish
- 3.baska, oborka, valanlarni chetlarini cho‘zib dazmollash
- 4.gazlama g‘ijimini dazmollab yoyish

76.Dazmollashda ishatiladigan atamalar: tekislab dazmollash -

- 1.gazlama g‘ijimini dazmollab yoyish
- 2.kiyimda dazmollashda hosil bo‘lgan yaltiroqlikni bug‘lab yo‘qotish
- 3.kiyim choklarini yoki taxlamalarni bir tomonga yotqazib dazmollash
- 4.kiyim choklarini ikki tomonga yorib dazmollash

77.Dazmollashda ishatiladigan atamalar: yorib dazmollash -

- 1.kiyim choklarini ikki tomonga yorib dazmollash

- 2.kiyim choklarini yoki taxlamalarni bir tomonga yotqazib dazmollash
- 3.gazlama g'ijimini dazmollab yoyish
- 4.tayyor kiyimni dazmollash

78.Tikuv mashinasida bajariladigan ishlar atamalari: biriktirma chok -

- 1.qismlarni mashina chokida doimiy biriktirib ulash
- 2.yeng o'miziga yengni, yoqa o'yindisiga yoqani o'tkazib tikish
- 3.bir bo'lakni ustiga, ikkinchisini qo'yib ustidan-o'ngidan bostirib tikish
- 4.buklangan qirqim chetini mashinada tikish

79.Tikuv mashinasida bajariladigan ishlar atamalari: o'tkazib tikish –

- 1.eng o'miziga yengni, yoqa o'yindisiga yoqani o'tkazib tikish
- 2.kiyimga mayda bo'laklarni ulab tikish (klinlar)
- 3.kiyim chetidan istalgan kenglikda chok tikish
- 4.bir bo'lakni ustiga, ikkinchisini qo'yib ustidan-o'ngidan bostirib tikish

80.Tikuv mashinasida bajariladigan ishlar atamalari: bostirib tikish –

- 1.bir bo'lakni ustiga, ikkinchisini qo'yib ustidan-o'ngidan bostirib tikish
- 2.kiyimga mayda bo'laklarni ulab tikish (klinlar)
- 3.kiyim chetidan istalgan kenglikda chok tikish
- 4.buklangan qirqim chetini mashinada tikish

81.Tikuv mashinasida bajariladigan ishlar atamalari: buklab tikish –

- 1.buklangan qirqim chetini mashinada tikish
- 2.kiyimga mayda bo'laklarni ulab tikish (klinlar)
- 3.eng o'miziga yengni, yoqa o'yindisiga yoqani o'tkazib tikish
- 4.kiyim chetidan istalgan kenglikda chok tikish

82.Tikuv mashinasida bajariladigan ishlar atamalari: ulab tikish –

- 1.kiyimga mayda bo'laklarni ulab tikish (klinlar)
- 2.buklangan qirqim chetini mashinada tikish
- 3.bir bo'lakni ustiga, ikkinchisini qo'yib ustidan-o'ngidan bostirib tikish
- 4.kiyim chetidan istalgan kenglikda chok tikish

83.Tikuv mashinasida bajariladigan ishlar atamalari: bezak choki –

- 1.kiyim chetidan istalgan kenglikda chok tikish
- 2.buklangan qirqim chetini mashinada tikish
- 3.bir bo'lakni ustiga, ikkinchisini qo'yib ustidan-o'ngidan bostirib tikish
- 4.eng o'miziga yengni, yoqa o'yindisiga yoqani o'tkazib tikish

84.Erkaklar ustki ko'ylagi -

- 1.ichki kiyim ustidan kiyiladigan yengil kiyim turidir
- 2.tungi ko'ylak hisoblanadi
- 3.ishga kiyish uchun mo'ljallangan bo'ladi
- 4.bayramona uslubda tikiladi

85.Erkaklar ustki ko‘ylagi nechta uslubga bo‘linadi va ular qanday?

1.3 ta. Kundalik uslub. Sport uslubi. Bayramona uslub.

2.2 ta. Kundalik uslub. Sport uslubi.

3.2 ta. Sport uslubi. Bayramona uslub.

4.2 ta. Kundalik uslub. Bayramona uslub.

86.Erkaklar ko‘ylagini tikish uchun olinadigan asosiy o‘lchovlar?

1.ko‘krak aylanasi, bo‘yin aylanasi, kiyim uzunligi, yeng uzunligi

2.ko‘krak aylanasi, bo‘yin aylanasi, yelka kengligi, bel aylanasi

3.ko‘krak aylanasi, bo‘yin aylanasi, qo‘l aylanasi, orqa kenglik

4.ko‘krak aylanasi, bo‘yin aylanasi, old kenglik, belgacha bo‘lgan uzunlik

87.Erkaklar ko‘ylagini bichishda bo‘laklarining hamma qirqimlaridan necha sm chok haqi tashlab bichiladi?

1.0,5-0,7 sm

2.0,7-1 sm

3.0,5 – 1 sm

4.1-1.5 sm

88.Erkaklar ko‘ylagi qaysi chokda tikiladi?

1.bostirma chokda

2.ag‘darma chokda

3.yashirin chokda

4.izma chokida

89.Erkaklar kiyimini tikishda har doim choklar

1.teskaridan o‘ngiga bostiriladi

2.o‘ngidan teskarisiga bostiriladi

3.yorib dazmollab bostiriladi

4.bir tomonga yotqazib bostiriladi

90.Erkaklar ko‘ylagi yon qirqimida

1.orqa bo‘lak old bo‘lakka o‘rab tikiladi

2.old bo‘lak orqa bo‘lakka o‘rab tikiladi

3.choklar yorib dazmolaniadi

4.ag‘darma chok tikiladi

91.Erkaklar ko‘ylagida yeng –

1.yeng o‘miziga o‘rab tikiladi

2.janda chokida tikiladi

3.tahlama berib tikiladi

4.moskovcha chokda tikiladi

92.Erkaklar ko‘ylagida yoqa va manjet

- 1.teskaridan tikilib, o‘ngiga bostiriladi
- 2.o‘ngidan tikilib, teskariga bostiriladi
- 3.bostirma chokda tikiladi
- 4.jinsi chokida tikiladi

93.Erkaklar ko‘ylagida koketka, qaytarma va tik yoqa o‘rtasi qaysi ip yo‘nalishiga bacheladi?

- 1.arqoq ipiga bichiladi
- 2.asos ipiga bichiladi
- 3.koketka asos, yoqalar arqoq ipiga bichiladi
- 4.yoqalar asos, koketka arqoq ipiga bichiladi

94.Ayollar ko‘ylagi asos chizmasini chizish uchun olinadigan asosiy o‘lchovlarni ko‘rsating?

- 1.ko‘krak2 aylanasi, bel aylanasi, bo‘ksa aylanasi, orqa kenglik, orqa uzunlik, yeng uzunligi
- 2.ko‘krak2 aylanasi, old uzunlik, yelka kengligi, bo‘yin aylanasi, qo‘l aylanasi
- 3.ko‘krak2 aylanasi, bo‘ksa balandligi, yubka uzunligi, orqa kenglik, orqa uzunlik
- 4.ko‘krak2 aylanasi, yeng uzunligi, tirsakkacha bo‘lgan uzunlik, old kenglik

95.Ayollar ko‘ylagi asosan qaysi chokda tikiladi?

- 1.gazlama turiga qaraladi, ko‘ylak choklari asosan yorib dazmollanadi va ochiq qirqimlarga ishlov beriladi
- 2.ko‘ylak choklari doim ag‘darma chokda tikiladi
- 3.gazlama turiga qaraladi, ko‘ylak choklari asosan bostirma chokda tikiladi
- 4.ko‘ylak choklari doim yashirin va izma chokda tikiladi

96.Ayollar ko‘ylagi yupqa (masalan, shifon) gazlamadan tikilsa, qaysi chokda tikiladi?

- 1.ag‘darma chokda
- 2.asosiy qoidaga ko‘ra choklar yorib dazmollanadi va ochiq qirqimlarga ishlov beriladi
- 3.bostirma chokda tikiladi
- 4.janda chokida tikiladi

97.Agar, gazlama guli bir tomonlama bo‘lsa yoki tukli bo‘lsa, ko‘ylakni

- 1.bir yo‘nalishda bichish kerak
- 2.ixtiyoriy yo‘nalishda bichish mumkin
- 3.gulini va tukini albatta yuqoriga qaratib bichiladi
- 4.andazalar qarama-qarshi qo‘yib bichiladi

98.Qaysi gazlamalarda ko‘ylakni qiya yo‘nalishda bichish mumkin?

- 1.katak va yo‘l-yo‘l gazlamalarda
- 2.tukli gazlamalarda

- 3.sidirg'a gazlamalarda
- 4.sirg'anadigan ipakli gazlamalarda

99.Qaysi hollarda andaza ikki tomonga ham tayyorlanadi?

- 1.ko'ylakning fasoni asimmetriya bo'lsa
- 2.ko'ylakning fasoni simmetriya bo'lsa
- 3.vitachkalar fason chiziqlariga ko'chgan bo'lsa
- 4.ko'ylak fasonida tahlamlar bo'lsa

100.Ko'ylakni to'g'ri dazmollash tartibini ko'rsating?

- 1.yeng, yoqa, bluzka, yubka etagi - pastdan tepaga, belbog'
- 2.yubka etagi - pastdan tepaga, belbog', cho'ntak, yeng, yoqa, bluzka
- 3.belbog', bezaklar, yubka etagi - pastdan tepaga, yeng, yoqa,
- 4.bezaklar, yubka etagi - pastdan tepaga, belbog', yeng